

ISSN: 2181-9416



ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

ҲУҚУҚИЙ, ИЖТИМОИЙ, ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

ISSN 2181-9416
Doi Journal 10.26739/2181-9416

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ

4 СОН, 4 ЖИЛД

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 4, ВЫПУСК 4

LAWYER HERALD

VOLUME 4, ISSUE 4



TOSHKENT-2024

Мундарижа

МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ

1. RAXIMBERGANOVA Bonu Davlatnazarovna

MUDDATLI MEHNAT SHARTNOMASI BANDLIKNING NOTIPIK SHAKLI SIFATIDA..... 8

СУД ҲОКИМИЯТИ. ПРОКУРОР НАЗОРАТИ.

ҲУҚУҚНИ МУҲОҲАЗА ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

2. АБДУОЛИМОВ Уринбой Худобердиевич

ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ

РИВОЖЛАНИШИНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ТАҲЛИЛИ..... 15

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИ, ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. КРИМИНОЛОГИЯ. ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҲУҚУҚИ

3. АБДУРАСУЛОВА Кумриниса Раимкуловна

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И ПРОФИЛАКТИКА ПРЕСТУПНОСТИ
НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ..... 22

4. ТЎРАБАЕВА Зиёда Якубовна

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИ ЖАЗОНИ ЎТАШДАН МУДДАТИДАН ИЛГАРИ ШАРТЛИ
РАВИШДА ОЗОД ҚИЛИШ..... 32

5. ХАЙДАРОВ Шухратжон Джумаевич

КАСБ ЮЗАСИДАН ЎЗ ВАЗИФАЛАРИНИ ЛОЗИМ ДАРАЖАДА БАЖАРМАСЛИК
ЖИНОЯТИНИНГ СУБЪЕКТИ..... 44

6. КАРАКЕТОВА Дилноза Юлдашевна

БЕЗОРИЛИК ЖИНОЯТИ ОБЪЕКТИВ ТОМОНИ БЕЛГИЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ: ТАҲЛИЛ ВА ТАКЛИФ..... 52

7. TOSHEVA Maftuna Anvar qizi

QO'SHMACHILIK QILISH YOKI FONISHAXONA SAQLASH JINOYATINING
JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI..... 62

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИ. КРИМИНАЛИСТИКА, ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ҲУҚУҚ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ

8. ИМОМНАЗАРОВ Алишер Хасанович

ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА КЎЗДАН КЕЧИРИШ: ЎЗБЕКИСТОН ВА ХОРИЖИЙ
МАМЛАКАТЛАР ҚОНУНЧИЛИГИ ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ..... 69

ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ

9. РАСУЛОВ Журабек Абдусамиевич

ХАЛҚАРО МИГРАЦИЯ ҲУҚУҚИНИНГ ШАРТНОМАВИЙ МАНБАЛАРИ..... 79

10. АЗХОДЖАЕВА Роза Алтыновна

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ВОПРОСОВ БЕЗОПАСНОСТИ ГЕННО-
МОДИФИЦИРОВАННЫХ ПРОДУКТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЗДОРОВЬЕ ДЕТЕЙ..... 85

11. ХУДАЙБЕРДИЕВА Шоҳиста Акмал қизи ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИ ТАРТИБГА СОЛУВЧИ СИЁСИЙ СОҲАГА ОИД ХАЛҚАРО ШАРТНОМАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	92
12. РАХМОНКУЛОВА Нилуфар Ходжи-Акбаровна ЗАЩИТА ПРАВ ЖЕНЩИН: ОНЛАЙН ПЛАТФОРМЫ.....	99
13. ЕСЕМУРАТОВ Алишер Избасарович МИГРАНТЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ КОНЦЕПЦИЯЛАРИ	108
14. ABDULLAYEVA Dilfuza МЕННАТ MUNOSABATLARIDA KAMBITISHGA YO'L QO'YMASLIK: XALQARO MENNAT STANDARTLARI VA MILLIY QONUNCHILIK.....	117
15. ТУРСУНОВ Ойбек РОЛЬ ЕВРОПЕЙСКОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КОМИССИИ В СФЕРЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ И ОХРАНЫ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОДОТОКОВ.....	123

ҲУҚУҚИЙ АМАЛИЁТ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА

16. UMARXANOVA Dildora Sharipxanovna AYOLLARNING ODIL SUDLOVGA ERISHISH DARAJASINI OSHIRISH: YEVROPA ITTIFOQI MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA MILLIY AMALIYOT	128
17. YULDOSHBEKOV Avazbek Alisher o'g'li SOLIQ MASLANATCHILARI KASBIY JAVOBGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	136
18. МЕЛИЕВ Худоёр КОРРУПЦИЯВИЙ ЖИНОЯТЧИЛИККА ИМКОН БЕРГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАР.....	144

ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ ВЕСТНИК ЮРИСТА LAWYER HERALD

YULDOSHBEKOV Avazbek Alisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

E-mail: yuldoshbekov94@mail.ru

SOLIQ MASLAHATCHILARI KASBIY JAVOBGARLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования): YULDOSHBEKOV A. Soliq maslahatchilari kasbiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2024) В. 136-143.



4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2024-4-17>

ANNOTATSIYA

Soliq solish sohasidagi maslahat maslahatchi va mijoz o'rtasida yuqori darajadagi ishonchni talab qiladi. Ammo zamonaviy, ya'ni ayovsiz raqobat sharoitida tashkilotlar o'zlarining tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni maslahatchi uchun oshkor qilishdan qo'rqishlari ma'lum bo'ldi. Bu esa o'z navbatida turli ko'rinishdagi xizmatlar bozorida soliqqa tortish bo'yicha maslahatlarning rivojlanishiga ham aks ta'sir qilishi aniqlandi. Ushbu muammoni fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, ya'ni turli xil seminarlar, soliq to'lovchilarning savodxonligini oshirish kurslari va bunday tadbirlarni targ'ib qilish orqali hal qilish mumkin. Soliq amaliyotida soliq maslahati ko'rinishidagi faoliyatning keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu masala nazariyasi hali ham yetarli darajada rivojlanmaganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Buni chuqur nazariy tahlil qilish zarurati xorij tajribasini hisobga olgan holda malakatimizda soliq maslahati institutining oqilona modelini qurish metodologiyasini ishlab chiqish zarurati bilan bog'liqligi aniqlandi. Mazkur maqolada soliq maslahatchilarining xulq-atvori va kasbiy javobgarligi to'g'risida olimlarning munosabatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq huquqi, soliq maslahati, soliq maslahatchisi, moliyaviy savodxonlik, soliq munosabatlari, kasbiy etika, motivatsiya, samaradorlik, javobgarlik.

ЮЛДАШБЕКОВ Авазбек Алишерович

Самостоятельный соискатель (PhD)

Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: yuldoshbekov94@mail.ru

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НАЛОГОВЫХ КОНСУЛЬТАНТОВ

АННОТАЦИЯ

Налоговые консультации требуют высокого уровня доверия между консультантом и клиентом. Но в условиях сегодняшней жесткой конкуренции стало известно, что организации боятся раскрывать консультантам свою коммерческую тайну. Установлено, что это, в свою очередь, влияет на развитие налогового консультирования на рынке различных видов услуг. Эту проблему можно решить за счет повышения правовой культуры

граждан, то есть проведения различных семинаров, курсов по повышению грамотности налогоплательщиков, популяризации подобных мероприятий. Несмотря на широкое использование деятельности в форме налогового консультирования в налоговой практике, мы видим, что теория этого вопроса еще недостаточно разработана. Установлено, что необходимость глубокого теоретического анализа связана с необходимостью разработки методологии построения обоснованной модели института налогового консультирования в нашей стране с учетом зарубежного опыта. В данной статье рассматриваются взгляды ученых на поведение и профессиональную ответственность налоговых консультантов.

Ключевые слова: налоговое право, налоговое консультирование, налоговый консультант, финансовая грамотность, налоговые правоотношения, результативность инвестиций, стимул, эффективность, механизм.

YULDASHBEKOV Avazbek

Independent researcher (PhD) of Tashkent State University of Law

E-mail: yuldashbekov94@mail.ru

DISTINCTIVE FEATURES PROFESSIONAL RESPONSIBILITY OF TAX CONSULTANTS

ANNOTATION

Tax consultations require a high level of trust between the consultant and the client. But in today's fierce competition, it has become known that organizations are afraid to disclose their trade secrets to consultants. It has been established that this, in turn, affects the development of tax consulting in the market of various types of services. This problem can be solved by improving the legal culture of citizens, that is, by holding various seminars, courses to improve the literacy of taxpayers, and popularizing such events. Despite the widespread use of activities in the form of tax consulting in tax practice, we see that the theory of this issue has not yet been sufficiently developed. It is established that the need for in-depth theoretical analysis is associated with the need to develop a methodology for building a sound model of the institute of tax consulting in our country, taking into account foreign experience. This article examines the views of scientists on the behavior and professional responsibility of tax consultants.

Keywords: tax law, tax consulting, tax consultant, financial literacy, tax relations, investment performance, incentive, efficiency, mechanism.

Statistik ma'lumotlarga nazar tashlar ekanmiz, Respublika bo'yicha jami 204 nafar soliq maslahatchilari va 74 ta soliq maslahatchilari tashkiloti (keyingi o'rinlarda SMT) ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan atigi 29 ta SMT yuridik shaxs ixtiyoriy tugatilayotganda xulosa berish huquqiga ega tashkilot bo'lib hisoblanadi [1].

Bundan tashqari, yurtimizda faoliyat yuritayotgan jami 74 ta soliq maslahatchilari tashkilotidan Jizzah viloyatida 1 ta, Farg'ona viloyatida 1 ta, Toshkent viloyatida 2 ta, Buxoro viloyatida 3 ta, Andijon viloyatida 4 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 ta, Samarqand viloyatida 3 ta, Qashqadaryo viloyatida 1 ta, Sirdaryo viloyatida 1 ta soliq maslahatchilari tashkiloti ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, qolgan 57 tasi Toshkent shahri hisobiga to'g'ri keladi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar bilan proportsional ravishda taqqoslaydigan bo'lsak, yurtimizda jami 485024 ta korxonalar va tashkilotlar mavjud bo'lib, shundan Qoraqalpog'iston Respublikasida 25928 ta, Andijon viloyatida 29717 ta, Buxoro viloyatida 31203 ta, Jizzax viloyatida 19923 ta, Qashqadaryo viloyatida 33064 ta, Navoiy viloyatida 21880 ta, Namangan viloyatida 27634 ta, Samarqand viloyatida 43477 ta, Surxondaryo viloyatida 24657 ta, Sirdaryo viloyatida 13432 ta, Toshkent viloyatida 45295 ta, Farg'ona viloyatida 42574 ta, Xorazm viloyatida 27089 ta, Toshkent shahrida 99151 tani tashkilot etadi [2].

Demak, yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, mamlakat bo'yicha jami 485024 ta korxon va tashkilotga 204 nafar soliq maslahatchisi to'g'ri kelmoqda.

Vaholanki, Yevropa va AQSHning rivojlangan mamlakatlari o'rtacha statistik koeffitsientga ega bo'lib, mamlakatda ishlaydigan soliq xizmatlarining 10 nafar xoidimi uchun 11 nafar soliq maslahatchisi, Avstraliyada esa har 18 million kishiga 18000 nafar soliq xizmati xodimi va 21000 soliq maslahatchisi to'g'ri keladi [3].

Institutsional tartibga solish doirasida soliq munosabatlarining rivojlanishi soliq huquqbuzarliklarining oldini olishda soliq maslahatlarining ahamiyatini oshirishga va mumkin bo'lgan soliq oqibatlari nuqtayi nazaridan mantiqiy bo'lmagan boshqaruv qarorlari tufayli korporativ soliq to'lovchilarning faoliyatiga yetkaziladigan zararining oldini olishga yordam beradi.

XVII-XVIII asrlarda shakllangan ma'rifat davrida almashinuv nazariyasining atomistik nazariya deb nomlangan turi paydo bo'lib, ushbu nazariyaga fransiyalik mutafakkirlar Sebastyen Le Pretr de Voban (fr. Sébastien Le Prestre de Vauban, 1633-1707) (jamoat shartnomasi nazariyasi) va Sharl Lui de Monteskye (fr. Charles-Louis de Seconda, Baron de La Brède et de Montesquieu; 1689-1755) (davlat shartnomasi nazariyasi) hamda Volter kabilar asos soldi. Ushbu nazariya soliq fuqarolar va davlat o'rtasidagi shartnoma mahsuli ekanini e'tirof etadi. Unga muvofiq fuqaro shaxsiy va mulkiy xavfsizligi himoyasi hamda boshqa xizmatlar uchun davlatga haq to'laydi [4, B.340].

Soliq maslahati instituti oldida turgan barcha vazifalarni amalga oshirish, mutaxassislarning zarur malakadarajasiga erishish, ularning nazorati va mijozlar oldidagi mas'uliyatini shakllantirish, maslahat xizmatlari bozoriga tartibga solinmagan holda erkin kirish, mutaxassislarning o'z-o'zidan paydo bo'lishi va ularning professional birlashmalarda ishtirok etishining ixtiyoriyligi sharoitida bir muncha qiyindir. Ushbu sohaning yuksak ijtimoiy ahamiyatini inobatga olgan holda, soliq maslahati institutining faoliyati uchun davlat manfaatlari nuqtayi nazaridan ham, soliq to'lovchilarning ehtiyojlari nuqtayi nazaridan ham tartibga solinadigan shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shu bilan birga, "zarar yetkazmaslik", ya'ni ushbu manfaatlar muvozanatini ta'minlash va soliq maslahatchilarining javobgarligi va ularning faoliyatini nazorat qilish masalasiga oqilona yondashish juda muhimdir.

Binobarin, A.A.Orlovaning qayd etishicha, professional hamjamiyat oldida soliq maslahati bozorini rivojlantirish va jamiyatda soliq maslahati kasbining ijobiy imidjini shakllantirishdek muhim vazifa turibdi [5].

Maslahatchilarning professional birlashmalari barcha sohalarda yetarli ta'sirga ega emas, shuningdek, mijozlar individual maslahatchi yoki maslahat kompaniyasining ishonchliligi va professionaligi to'g'risida ma'lumot olishlari uchun yetarli manbalar ham mavjud emas. Natijada, mijozlar maslahat berishga oid axloqiy me'yorlarga rioya qilmaydigan va professional bo'lmagan odamlarning xizmatidan foydalanishadi. Bu esa maslahat xizmatlarining umumiy sifatiga va potensial mijozlar oldida soliq maslahatchisining imidjiga salbiy ta'sir qiladi [6].

Beqaror global iqtisodiy vaziyat sharoitida, maksimal foyda olishga intilib, har qanday korxon va hajmidan qat'iy nazar, o'z daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish va tartibga solish zaruratiga duch keladi. Daromadlar va xarajatlarni boshqarish orqali xo'jalik yurituvchi subyekt xatarlarni kamaytirish va bankrotlikning oldini olish kabi masalalarni hal qiladi.

Xususan, yu.f.d., professor I.A.Ergashevning qayd etishicha, "Soliq bo'yicha maslahat berish yagona shartnoma orqali belgilanadigan faoliyat turi bo'lib, soliq maslahatchisi bu soliq to'lovchining moliyaviy manfaatlarini himoya qiladigan shaxs hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, maslahatchi nafaqat o'z mijozini himoya qilishi va soliq to'lovlarini optimallashtirishi, balki soliqlarni o'z vaqtida va to'g'ri to'lashi uchun ko'maklashishi zarur bo'lib hisoblanadi" [3].

Yana bir tadqiqotchi olim S.Killianning keltirishicha, "Soliq maslahatchilarining ham davlat, ham soliq to'lovchi vakili sifatidagi ikkitomonlama pozitsiyasi har doim ham muvozanatli bo'lavermaydi. Shunday ekan, soliq maslahatchilari soliq to'lovchining qonun hujjatlariga rioya etishi yoki rioya qilmasligi xatti-harakatlari ustidan nazorat qiluvchi vazifasini ham bajaradi. Soliq maslahatchisining soliq to'lovchiga iqtisodiy jihatdan qaramligi uning o'z vazifalarini

muvofiglik agenti sifatida bajarishiga to'sqinlik qilib, oqibatda soliq maslahatchilari soliq to'lovchining soliqdan agressiv qochish istagini ma'qullashga majbur bo'lib qoladi" [7].

Soliq maslahatchisi soliqqa tortishni optimallashtirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarni rivojlantirish uchun qonuniy soliq sxemalarini taklif qilish, ularning samaradorligini tahlil qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash uchun ixtisoslashgan bo'ladi. Ushbu funksiyalarni sifatli bajarish uchun kasbiy malaka va professional tayyorgarlikka ega bo'lish kerak [8, B.17-23].

Xususan, N.V.Timoshkovaning fikriga ko'ra, "Soliq maslahatchisi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- 1) muloqot qobiliyatlari;
- 2) kuchli irodaga o'xshash sifatlar;
- 3) mantiqning o'ta aniqligi va o'z nuqtayi nazarini taqdim etish.

Shuningdek, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish uchun soliq maslahatchisi tomonidan ishda kasbiy etikaga rioya qilishni belgilaydigan asosiy xususiyatlar quyidagilar:

- 1) soliq maslahati masalalari bo'yicha professional pozitsiyani aniq va tushunarli taqdim eta olish qobiliyati;
- 2) ishbilarmonlik suhbatini o'tkazish qobiliyati;
- 3) biznes aloqalarini o'rnatish qobiliyati;
- 4) berilgan maslahat savollariga javoblarni aniq va tushunarli ifodalash qobiliyati;
- 5) soliq maslahati masalalari bo'yicha hisobotlarda javoblarni taqdim etishning mantiqiyligi va izchilligi;
- 6) maslahat maqsadida tadqiqot o'tkazish uchun ma'lumotlarni to'g'ri tanlash qobiliyati [9, B.25-27].

O'zining kasbiy faoliyatida soliq maslahatchisi firmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan ham, davlat organlari bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi. Innovatsion rivojlanishni boshqarish, shuningdek tashkilotdagi innovatsiyalarni baholash ko'p jihatdan faoliyatning turli sohaslarida, shu jumladan soliq xatarlarini baholashda va bahsli arbitraj amaliyotida olingan sifatli va to'liq ma'lumotlarga bog'liq. Shunday qilib, soliq maslahatchisining kasbiy vakolatlar darajasi soliq qonunchiligi va kasbiy etika prinsiplariga qat'iy rioya qilishga asoslangan bo'ladi. Kasbiy etika prinsiplariga muvofiq soliq maslahati sohasida professional xizmatlar ko'rsatish maqsadida maslahatchi mijozlarning millati, jinsi va dinidan qat'iy nazar, ularning manfaatlarini himoya qilish majburiyatini oladi.

Har qanday holatda ham maslahatchi mijozning manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yishi va ularning bir-biriga zid kelmasligiga ishonch hosil qilishi kerak. Maslahatchi mijozning muayyan qarorlariga qiziqmasligi va hissiy jihatdan mustaqil bo'lishi kerak.

Soliq maslahatchisi tomonidan xatolarni tuzatish amaldagi mehnat va fuqarolik qonunchiligida belgilangan chegaralar doirasida moddiy zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalarni joriy etish va boshqarish masalalari bo'yicha ommaviy axborot vositalari orqali professional soliq maslahat xizmatlarini reklama qilish va taklif qilish firmalar, jismoniy shaxslar va o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq maslahatchisi tomonidan kasbiy etika prinsiplarini qo'llash yoki qo'llamaslikni ko'rsatadigan va yuqoridagi masala bilan bog'liq bo'lgan prinsip ommaviy axborot vositalaridan adolatli foydalanishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni reklama qilishda tartiblilik prinsipi bilan chambarchas bog'liq holda halollik prinsipini ajratib ko'rsatish mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida umumiy masalalar bo'yicha ham, innovatsiyalarni joriy etish va boshqarish bo'yicha ham soliq maslahati xizmatlarini amalga oshirishda soliq maslahatchisi o'z manfaatlarini va mijozlar manfaatlarini o'rtasida ziddiyatning yo'qligi, hissiy mustaqillik va mijozning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishni o'z ichiga oladigan kasbiy etika prinsiplariga rioya qilishi kerak [10, B.87-96].

Yuqoridagi fikrlardan farqli ravishda, A.K.Kobilyanskiyning qayd etishicha, “Qonunchilik normalariga soʻzsiz rioya qiladigan mustaqil professional soliq maslahatchilarining faoliyati nafaqat maslahat xizmatining buyurtmachisi sifatida soliq toʻlovchi manfaatlarining, balki huquqbuzarliklar doirasini qisqartirish orqali jamiyat manfaatlarining ham himoya qilinishini taʼminlaydi. Mustaqil soliq maslahatchilarining asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- soliq toʻlovchilar va soliq organlari oʻrtasida bitimlar tuzishda ular oʻrtasidagi muzokaralarda ishtirok etish;
- soliq nizolarida va nizoli vaziyatlarni hal qilishda soliq toʻlovchining manfaatlari yuzasidan vositachilik qilish yoki vakillik qilish;
- soliq hisobotlarini, soliq nazorati maqsadlari uchun zarur boʻlgan boshqa hujjatlarni taqdim etish, ortiqcha toʻlangan soliqlarni qaytarish, oʻzaro hisob-kitoblarni solishtirish va boshqa tartib-qoidalarini taqdim etish munosabati bilan soliq organlari bilan hamkorlikda soliq toʻlovchining manfaatlarini ifodalash;
- soliq toʻlovlarini tejash uchun qonuniy ruxsat etilgan imkoniyatlardan foydalangan holda soliq hisobotini tuzish;
- soliq qonunchiligini tushuntirish va taklif etilayotgan bitimlarning soliq oqibatlarini rejalashtirish” [11, B.41-42].

Shuningdek, S.V.Barulinning fikriga koʻra “Koʻpgina mamlakatlarning xorijiy amaliyoti soliq maslahati tor ixtisoslashuv va maslahatchilarning yuqori kasbiy tayyorgarligini talab qiladigan biznesning muhim infratuzilma elementi ekanligini isbotladi. Birinchidan, soliq maslahatchisi soliq va boshqa qonunchilikdagi barcha oʻzgarishlarni va soliq nizolarini hal qilishning sud amaliyotini atayin kuzatib brogan holda ushbu oʻzgarishlarni maʼlum bir mijozning xususiyatlariga tizimlashtiradi va moslashtiradi. Ikkinchidan, soliq maslahatchisi soliq sohasidagi muammolarni hal qilishning maxsus vositalariga ega boʻlib, ulardan foydalanish maslahatchiga oʻz vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali hal qilishga imkon beradi. Uchinchidan, soliq maslahatchisi mijozga soliq sohasidagi bir qator masalalarni hal qilish boʻyicha oʻz bilim va tajribasini taklif qilishi mumkin” [12].

Tadqiqot natijalari tahlili.

Shu oʻrinda qayd etish joyizki, soliq maslahatchilarining kasbiy javobgarligi boshqa javobgarlik turlaridan bir qator xususiyatlariga koʻra farqlanadi va ular quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, kasbiy javobgarlik maʼlum bir kasb yoki faoliyat sohasiga tegishli boʻlib, shu sohaning oʻzigagina xos boʻlgan talablar va standartlariga asoslanadi. Shu bilan bir qatorda, bu javobgarlik turi mutaxassisning kasbiy malakasi, bilimlari va koʻp yillik tajribasiga ham bogʻliq boʻlib hisoblanadi.

Ikkinchidan, kasbiy javobgarlik koʻp holatda kasbiy etika kodekslari va prinsiplariga tayangan holda, mijozlar va jamiyat oldidagi masʼuliyatni qatʼiy ravishda belgilaydi, bunda kasbiy javobgarlik nafaqat ish beruvchi, balki mijozlar va keng jamiyat oldidagi masʼuliyatni ham oʻz ichiga oladi.

Uchinchidan, kasbiy javobgarlik maʼlum litsenziyalar yoki sertifikatlarning mavjudligi bilan bogʻliq boʻlib hisoblanadi va mutaxassisdan oʻz bilim va koʻnikmalarini muntazam yangilab borishni talab qiladi.

Toʻrtinchidan, kasbiy xatolar yoki etika qoidalarining buzilishi holatlari huquqiy oqibatlarga, jumladan litsenziyaning bekor qilinishi yoki jarimalar toʻlashga olib kelishi mumkin. Shu jumladan, koʻplab kasb turlarida kasbiy javobgarlik sugʻurtasi mavjud boʻlib, bu boshqa javobgarlik turlarida kam uchraydigan holat boʻlib hisoblanadi.

Xususan, soliq maslahatchilari va soliq maslahatlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yaratish juda ham muhim boʻlib, ushbu tizimni rivojlantirish davlat tomonidan tartibga solish orqali ham, soliq maslahatchilarining professional birlashmalari orqali oʻzini oʻzi tartibga solishni yanada rivojlantirish orqali ham amalga oshirilishi kerak. Soliq maslahati sohasidagi faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yoʻnalishlarda amalga oshirilishi kerak: soliq maslahatchilarining qonun ijodkorligi faoliyatidagi rolini oshirish, shuningdek soliqqa tortish va soliq organlarining nazorat tartib-qoidalarining munozarali masalalarini hal

qilish uchun shart-sharoitlar yaratish shular jumlasidandir [13].

Fikrimizcha, soliq maslahatchilarining javobgarligi masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda javobgarlik mijoz bilan tuzilgan shartnoma doirasida belgilanadi. Kelajakda soliq maslahatchisiga murojaat qilib, kompaniya duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlar uchun javobgarlik to'liq belgilanishi kerak.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida qayd etish joyizki, soliq maslahatchilari o'zlarining faoliyatlarini Axloq kodeksi orqali soliq to'lovchi va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarning sinxronizatori sifatida izohlaydilar. Axloq kodeksi soliq maslahatchilarining soliq to'lovchilar oldidagi majburiyatlarini bajarishdagi asosiy vositasi hamdir. Soliq maslahatchilari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlar tranzaksion bo'lsada, soliq maslahatchilari professional axloq kodeksini qo'llab-quvvatlagan holda xizmat ko'rsatishlari shart.

Tadqiqot doirasida soliq xizmati xodimlari, soliq maslahatchilari va boshqa kasb vakillaridan iborat auditoriyada o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asosan, "Sizningcha, "Soliq maslahatchilarining Etika kodeksini ishlab chiqishga zarurat mavjudmi?" degan savolga respondentlarning 70,1 foizi "zarurat mavjud" deya javob bergan bo'lsalar, qolgan 29,9 foizi esa "zarurat mavjud emas" degan javob bilan o'z pozitsiyalarini bildirib o'tganlar.

Xususan, AQSH, Daniya, Italiya, Belgiya, Slovakiya kabi davlatlarning ijobiy tajribalaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Soliq maslahatchilarining kasb etika qoidalari ishlab chiqish va soliq maslahatchilari faoliyatiga to'liq joriy etish taklif etiladi.

Jumladan, soliq maslahatchilari faoliyatiga kasb etika qoidalarini joriy etishning bir qancha ijobiy jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, etika qoidalari soliq maslahatchilari uchun aniq yo'riqnomalar beradi va ularning ish sifatini oshiradi. Shuningdek, kasb etika qoidalarining ishonchni mustahkamlash funksiyasi ham mavjud bo'lib, mijozlar va jamoatchilik soliq maslahatchilari faoliyatiga ko'proq ishonch bildiradi.

Ikkinchidan, etik tamoyillar asosida ish faoliyatini olib borish korrupsiya va qonunbuzarlik holatlarini kamaytirishga yordam beribgina qolmasdan, soliq maslahatchilarining mehnat faoliyatini yanada ochiq va shaffof qilishga ko'maklashadi.

Uchinchidan, kasb etika qoidalariga rioya qilish soliq maslahatchilari kasbining obro'sini oshirib, ushbu qoidalar mijozlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, etika qoidalari soliq maslahatchilarini o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilashga undaydi.

Bundan tashqari, doktor B.S.Rahimovning fikriga ko'ra, "Soliq maslahatchilari faoliyatini majburiy sug'urtalashni O'zbekistonda joriy etish zarur bo'lib, bu kasbiy xizmatlar bozorini tartibga solishning samarali usuli bo'lib hisoblanadi" [14].

Shu bilan bir qatorda, professor G.H.Qodirov soliq maslahatchilari faoliyatini majburiy sug'urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni taklif qilib, bu jarayonni soliq maslahatchilarining kasbiy malakasini oshirish bilan birga olib borish zarurligini ta'kidlaydi [15].

Yuqorida qayd etilgan olimlarning fikrlari soliq maslahati faoliyatini majburiy sug'urtalashning turli jihatlari yoritishga qaratilgan bo'lib, ular asosan bu amaliyotning mijozlar manfaatlarini himoya qilish va kasbiy xizmatlar sifatini oshirishdagi ahamiyatiga urg'u beradilar.

Bundan tashqari, Fransiya, Kanada, Finlandiya, Ispaniya, Lyuksemburg, Latviya, Belgiya va Belorussiya kabi rivojlangan davlatlarning ijobiy tajribalaridan foydalangan holda "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi qonunga soliq maslahati faoliyatini faqatgina soliq maslahatchisi va soliq maslahatchilari tashkilotining sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshirishi mumkinligini belgilovchi qoida kiritilishi maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Hozirda soliq maslahatchilari va soliq maslahatchilari tashkilotlari tomonidan Soliq maslahatchilari palatasiga a'zolik ixtiyoriy bo'lib, shu jumladan "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi qonunda ham soliq maslahatchisi va soliq maslahatchilari tashkilotining palataga hisobdorligi belgilanmagan. Bu esa o'z navbatida palata tomonidan kerakli ma'lumotlarni yig'ib

olish va zarur statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishda ulkan to'siq vazifasini bajarib kelmoqda.

Shu jumladan, tadqiqotchi olim O.S.Yakubovning fikriga ko'ra, "Soliq maslahati sohasini monitoring qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan bo'lsa-da, ushbu sohada mavjud kamchiliklarni chuqurroq tahlil qilish uchun zarur bo'ladigan ko'rsatkichlar bo'yicha vakolatli organga hisobot yoki ma'lumot taqdim qilib borilishi tartibini joriy qilish lozim" [16].

Xususan, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, Norvegiya, Finlandiya, Gretsiya kabi davlatlarning ijobiy tajribalaridan foydalangan holda, palataning so'roviga asosan soliq maslahatchilari va soliq maslahatchilari tashkilotlarining renkingini o'tkazish uchun axborot hamda o'z faoliyati yuzasidan hisobotlarni majburiy taqdim etilishiga doir qoidani qonunda mustahkamlashga ehtiyoj mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2012-yil 29-martdagi 31-son buyrug'iga ilova tarzida tasdiqlangan Soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish tartibi (1-sonli SMMS)ning 14-bandiga ko'ra, Soliq maslahatchilari tashkiloti shartnomani bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida mijozga (ishonch bildiruvchiga) zarar yetkazganligi uchun javobgar bo'ladi. Mijozga (ishonch bildiruvchiga) yetkazilgan zararlarning, shu jumladan boy berilgan foydaning o'rni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi kerakligi qayd etilgan. Biroq, ushbu milliy standart va "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi qonunda soliq maslahatchisi yoki soliq maslahatchilari tashkiloti tomonidan bila turib soxta xulosa tuzish va uning oqibatlari haqida fikr yuritilgan.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2012-yil 28-maydagi 44-son buyrug'iga ilova tarzida tasdiqlangan Soliq maslahati bo'yicha hisobot va soliq maslahatiga oid xulosani tuzish hamda mijozga (ishonch bildiruvchiga) taqdim etish tartibi (2-son SMMS) ning 16-bandiga asosan, "Soliq maslahatchilari tashkiloti qonunchilik hujjatlari talablariga yoki shartnomaga mos kelmaydigan hisobot va xulosa tuzganligi uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgardir" deya qayd etilgan bo'lib, qanday holatda javobgarlik kelib chiqishi va boshqa holatlarga aniqlik kiritib o'tilmagan.

Xususan, tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asosan, "Sizningcha, bila turib soxta tuzilgan soliq maslahatiga oid xulosa to'g'risidagi ma'lumotlarni qonunda aks ettirishga ehtiyoj mavjudmi?" degan savolga respondentlarning 78,7 % qismi "ehtiyoj mavjud, chunki, ushbu modda kiritilsa, soliq maslahatchisini tuhmat va noto'g'ri ayblovdan himoya qiladi" deya javob bergan bo'lsalar, qolgan 21,3 % qismi esa "ehtiyoj mavjud emas" deya o'z pozitsiyalarini bildirib o'tganlar.

Shuningdek, "United Tax Consultants" soliq maslahatchilari tashkilotining soliq maslahatchisi N.Xodjabekov bilan olib borilgan intervyuda ham hozirda soliq maslahati faoliyatida bila turib soxta tuzilgan soliq maslahatiga oid xulosa haqidagi normani qonunchilikka kiritish, xulosa faqatgina sudning qonuniy kuchga kirgan qaroriga ko'ra bila turib soxta tuzilgan deb topilishini qonun bilan belgilashga ehtiyoj mavjudligini qayd etib o'tgan.

Yuqoridagilarga asosan, O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi qonuniga soliq maslahati faoliyatida bila turib soxta tuzilgan soliq maslahatiga oid xulosa haqidagi yangi normani kiritish taklif etiladi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq maslahatchilari palatasining internetdagi rasmiy sahifasi https://pnk.uz/?page_id=279
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining internetdagi rasmiy sahifasi <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>
3. Ergashev Ikrom Abdurasulovich. Soliq nizolarini muqobil hal etishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari. Yurisprudensiya. 2021/4. 9-bet.
4. Soliq nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma / I.M.Niyazmetov, S.A.Giyasov, F.A.Fayziyev, R.R.Duschanov – T.: «Chinor fayzi baland». 2022. 340 b.
5. Орлова Анастасия Александровна Создание института налогового консультирования на условиях государственного регулирования // Управленческое

консультирование. 2016. №7 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sozdanie-instituta-nalogovogo-konsultirovaniya-na-usloviyah-gosudarstvennogo-regulirovaniya> (дата обращения).

6. Урман Наталья Альбертовна Налоговое консультирование: развитие и проблемы // Вестн. Том. гос. ун-та. Экономика. 2013. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nalogovoe-konsultirovanie-razvitie-i-problemy>

7. Killian, S. and Doyle, E. (2004). Tax aggression among tax professionals: the case of South Africa. *Journal of Accounting, Ethics and Public Policy*, 4(3), 159-189.

8. Лебедева, Е. И. Налоговый консультант призван обеспечить баланс частных и публичных интересов / Е. И. Лебедева // *Налоги и налогообложение*. – 2008. – №7. – С. 17 – 23.

9. Timoshkova N.V. (2018). Retrospective analysis of the formation of tax accounting in the Russian Federation - *Finance and accounting policy*, No. 2 (4). - pp. 25-27.

10. Тимошкова Н.В. Государственное регулирование деятельности малых и средних предприятий // *Государственное управление и экономика: современное состояние и перспективы развития: материалы международной научно-практической конференции / под общ. ред. С.Б. Мурашова*. – СПб.: Северо-Западный институт повышения квалификации ФНС России, 2016. – 280 с. — С. 87-96.

11. Кобылянский Артем Константинович Развитие налогового консультирования корпоративных налогоплательщиков // *Вестник РГЭУ РИНХ*. 2013. №1-2 (41,42). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-nalogovogo-konsultirovaniya-korporativnyh-nalogoplatelshikov>.

12. Барулин Сергей Владимирович, Минвалиев Антон Викторович Проблемы и перспективы развития института налогового консультирования в России // *Налоги и финансы*. 2018. №3 (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-i-perspektivy-razvitiya-instituta-nalogovogo-konsultirovaniya-v-rossii>.

13. Барулин Сергей Владимирович, Минвалиев Антон Викторович Проблемы и перспективы развития института налогового консультирования в России // *Налоги и финансы*. 2018. №3 (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-i-perspektivy-razvitiya-instituta-nalogovogo-konsultirovaniya-v-rossii>.

14. Rahimov B.S. «O'zbekistonda soliq konsaltingi: rivojlanish istiqbollari». *O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi*, 2022-yil, 3-son.

15. Qodirov G.H. «Soliq konsaltingi xizmatlarini takomillashtirish yo'llari». *O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali*, 2023-yil, 2-son.

16. Yakubov Otabek Sadullayevich. Soliq maslahati insitutini rivojlantirish masalalari. *Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 6-son*. 168-bet.